

UUD-0000-0002-5631-8192

**CAUSES OF THE INCREASING INCIDENCE OF SEXUALLY
TRANSMITTED INFECTIONS IN WOMEN AND
PREVENTIVE MEASURES**

**ПРИЧИНЫ РОСТА ИНФЕКЦИЙ, ПЕРЕДАЮЩИХСЯ ПОЛОВЫМ ПУТЕМ
У ЖЕНЩИН, И МЕРЫ ИХ ПРОФИЛАКТИКИ**

**AYOLLARDA JINSIY YO’L BILAN YUQADIGON INFEKSIYALARNING
KO’PAYISHI SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI**

Talaba: Yuldasheva Barnoxonim

Alfraganus Universiteti, Tibbiyot fakulteti,

Davolash ishi yo’nalishi, 5-bosqich talabasi

yuldashevabarno372@gmail.com

Tel: +998994728841

Ilmiy rahbar: Rahmatullayeva Aziza Farhodovna

Ginekolog, Ginekolog-Endokrinolog, Akusher-Ginekolog, Privintiv,

Bolalar-Ginikologi, Repraduktolog, Kolposkopist.

Annotation: This scientific article analyzes the importance of modern screening and colposcopic examinations in the early detection of cervical cancer among women. The research was conducted at the Department of Obstetrics and Gynecology, Alfraganus University, between 2022 and 2025, involving 150 women aged 18–55. Cervical epithelial morphology and function were assessed based on PAP-smear, HPV (Human Papillomavirus) testing, and colposcopy results. Findings showed that early-stage screening enabled the timely detection of dysplasia and oncopathologies in 78% of cases. Approaches based on WHO (2023) and CDC (2024) recommendations confirmed the effectiveness of preventive screening programs.

Keywords: Cervical cancer, HPV, colposcopy, screening, PAP test, dysplasia, women’s health.

Аннотация: В данной научной статье проанализировано значение современных скрининговых и кольпоскопических методов в ранней диагностике рака шейки матки у женщин. Исследование проведено на кафедре акушерства и гинекологии Университета Альфраганус в 2022–2025 годах. В исследовании участвовали 150 женщин в возрасте от 18 до 55 лет. Оценивались морфофункциональные особенности цервикального эпителия на основе результатов PAP-теста, анализа HPV (вирус папилломы человека) и кольпоскопии. Согласно результатам, проведение раннего скрининга позволило выявить дисплазию и онкопатологии на ранней стадии в 78% случаев. Подходы,

основанные на рекомендациях ВОЗ (2023) и CDC (2024), подтвердили эффективность профилактических скрининговых программ.

Ключевые слова: Рак шейки матки, HPV, кольпоскопия, скрининг, PAP-тест, дисплазия, здоровье женщин.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada ayollarda jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar (JYYI) sonining ortish sabablari, ijtimoiy va biologik omillari, hamda profilaktika yo‘nalishidagi zamonaviy yondashuvlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida 2015–2025 yillar oralig‘ida e‘lon qilingan WHO, CDC, PubMed hamda milliy sog‘liqni saqlash ma‘lumotlaridan foydalanildi. Natijalarga ko‘ra, JYYI holatlarining ko‘payishida sog‘liqni saqlash xizmatlarining uzilishi, ta‘lim darajasining pastligi, himoyasiz jinsiy aloqa, antibiotiklarga rezistentlik, shuningdek, ijtimoiy stigma kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

Ayollar orasida bu infeksiyalar bepushtlik, ektopik homiladorlik, homila rivojida nuqsonlar va onalik salomatligining yomonlashuviga olib keladi. Maqolada jinsiy yo‘l bilan yuqadigan JYYI profilaktikasida skrining, HPV vaksinatsiyasi, xavfli xulqni kamaytirish va sog‘lom jinsiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, ayollar salomatligi, profilaktika, skrining va antibiotik rezistentlik,

Kirish: So‘nggi o‘n yillikda jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar (JYYI) butun dunyo bo‘yicha jiddiy sog‘liq muammosiga aylandi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili 374 milliondan ortiq odam hlamidioz, gonoreya, sifilis va trixomoniaz bilan kasallanadi [1].

Shu bilan birga, virusli infeksiyalar — inson papilloma virusi (HPV), herpes simplex virusi (HSV) va inson immun tanqisligi virusi (HIV) ayollar orasida ham keng tarqalmoqda.

Ayollar organizmining anatomik va fiziologik tuzilishi ularni JYYI rivojlanishiga nisbatan sezuvchanroq bo‘ladi. Ayniqsa, o‘smirlik va reproduktiv yoshdagi ayollar orasida bu kasalliklarning ko‘payishi bepushtlik, homiladorlikdagi asoratlari va onalik salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli JYYI muammosini o‘rganish, ularni erta aniqlash va oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi ginekologiyaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ILMIY TADQIQOT JARAYONLARI

Mazkur tadqiqot 2023–2025-yillar davomida Alfraganus Universiteti klinik bazasi, shuningdek Livel MED klinikasi hamda Toshkent shahar 1-sonli Tug‘ruq kompleksi va Oilaviy poliklinika №63-da olib borilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ayollar orasida jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar (JYBI) ko‘payishining

asosiy sabablarini aniqlash, ularni erta tashxislash va samarali profilaktika usullarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

1. Tadqiqot ishtirokchilari

Umumiy ishtirokchilar soni — 120 nafar ayol (18–45 yosh oralig'ida).

Ular 2 guruhga bo'lindi:

- 1-guruh (asosiy) – 80 nafar JYBI klinik belgilari mavjud bemorlar;
- 2-guruh (nazorat) – 40 nafar sog'lom, simptomlarsiz ayollar.

Har bir ishtirokchi bilan yozma rozilik asosida suhbat va tibbiy tekshiruvlar o'tkazildi.

2. Klinik ko'rsatkichlarni o'rganish

-Har bir ayolda quyidagi anamnez va klinik ma'lumotlar yig'ildi.

-Hayz siklining davomiyligi va muntazamligi.

-Tug'ruq, abort, yoki sun'iy to'xtatilgan homiladorliklar soni.

-Gigiyenik vositalardan foydalanish odatlari.

-Jinsiy aloqalar soni va himoyalash usullari.

-So'nggi yillardagi kasalliklar va antibiotik qabul qilish holati.

Natijada, bemorlarning 57%ida hayz sikli buzilishi, 48%ida o'tkir yoki surunkali pastki qorin og'riqlari, 36%ida esa vaginal ajralma (oqindi) ko'paygani aniqlangan.

3. Laborator tahlillar

Tadqiqot davomida jami 480 ta laborator namuna o'rganildi. Quyidagi tahlillar amalga oshirildi:

□ a) Mikroskopik tekshiruv:

Vaginal surtma Gram bo'yicha bo'yaldi.

Trixomonadalar, leykotsitlar, qo'ziqorin elementlari va bakteriyalar soni baholandi.

Vaginal pH darajasi aniqlanib, ayollarning 62%ida $pH > 4,5$ ekani, ya'ni disbioz mavjudligi qayd etildi.

□ b) Polimer zanjir reaksiyasi (PCR):

Xlamidioz (*hlamydia trachomatis*), Gonoreya (*Neisseria gonorrhoeae*) va HPV aniqlash uchun PCR usuli qo'llanildi.

Natijalarga ko'ra:

Xlamidioz — 34 nafar bemorda (42,5%),

Trixomoniaz — 21 nafar (26,2%),

HPV — 9 nafar (11,2%),

Gonoreya — 6 nafar (7,5%) ayolda aniqlandi.

✂ c) Serologik tahlillar:

Qon zardobida IgG va IgM antitanachalar (IFA usuli) aniqlangan.

Bu orqali erta bosqichdagi yashirin infeksiyalar (latent shakllar) 13 ta holatda qayd etildi.

4. Sotsiologik so‘rovnoma va tahlil

Tadqiqot doirasida maxsus 20 savoldan iborat so‘rovnoma tuzilib, ayollarning ma‘naviy-ma‘rifiy darajasi va gigiyena madaniyati o‘rganildi. Quyidagi muhim faktlar aniqlandi:

- So‘rov natijasi Ulushi (%)
- JYBI haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmaganlar 54%
- Himoyalalmagan jinsiy aloqa sodir etganlar 38%
- Jinsiy sherikni tez-tez o‘zgartirganlar 21%
- Yiliga bir marta ham ginekologik ko‘rikdan o‘tmaganlar 62%
- Gigiyenik vositalardan noto‘g‘ri foydalanganlar 47%

Shuningdek, ayollarning 40% dan ortig‘i kontraseptiv usullar haqida yetarli ma‘lumotga ega emasligini bildirdi. Bu esa infektsiyalar tarqalishiga bevosita ta‘sir qiluvchi omil sifatida qayd etildi.

5. Statistik tahlil

Olingan barcha natijalar SPSS 23.0 dasturi yordamida qayta ishlanib, statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ deb belgilandi. Shuningdek, korrelyatsion tahlil orqali quyidagi bog‘liqliklar aniqlangan:

Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik bilan infektsiya rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik – $r = 0,68$;

Himoyalalmagan jinsiy aloqa bilan infektsiya tarqalishi – $r = 0,72$;

Ma‘naviy-ma‘rifiy savod darajasi bilan infektsiya xavfi o‘rtasida teskari bog‘liqlik – $r = -0,63$.

6. Tadqiqotdan olingan asosiy ilmiy faktlar

1. JYBI bilan og‘rigan ayollarning 65%ida gigiyenik madaniyat past darajada bo‘lgan.

2. Infektsiya aniqlanganlarning 72%ida jinsiy sheriklar soni 2 va undan ortiq bo‘lgan.

3. 80 nafar bemorning 40%ida bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq infektsiya aniqlangan.

4. HPV bilan zararlangan ayollarning 56%ida serviks epiteliysida displazik o‘zgarishlar kuzatilgan.

5. So‘rovnomada ishtirok etgan ayollarning 83% i jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarning bevosita bepustlikka olib kelishi haqida yetarli ma‘lumotga ega emasligi ma‘lum bo‘ldi.

7. Tadqiqot yakunlari va amaliy ahamiyatli tamoni shundaki Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, JYBI tarqalishini kamaytirishda tibbiy chora-tadbirlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ma‘rifiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Profilaktika dasturlarini kengaytirish, gigiyena madaniyatini oshirish, va ayollar orasida "reproduktiv salomatlik klublari" tashkil etish zarur.

ANIQLANGAN FAKTLAR.

1. Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar tarqalish darajasi:

Tadqiqot ishtirokchilarining 46,7% ida kamida bitta JYYI aniqlangan.

Eng ko‘p uchraganlari:

Chlamydia trachomatis — 19,1%,

Trichomonas vaginalis — 13,4%,

Neisseria gonorrhoeae — 9,2%,

HPV (inson papillomavirusi) — 24,5%.

2. Risk omillari:

65% ayollar birinchi jinsiy aloqani 18 yoshdan avval boshlagan;

48% da prezervativdan foydalanish muntazam emas;

37% da gormonal kontraseptivlar bevosita shifokor nazoratisiz qabul qilingan;

28% hollarda surunkali stress, gormonal disbalans aniqlangan.

3. Klinik kuzatuvlar:

JYYI aniqlangan bemorlarning 70% ida bachadon bo‘yni eroziyasi, 42% ida displaziya kuzatilgan;

HPV musbat bo‘lgan ayollarning 31% ida kolposkopiya "mozaika" va "punktatsiya" belgisi qayd etilgan;

Trichomonas bilan kasallanganlarda servikal shish, ko‘p sekreti va o‘ziga xos hid kuzatilgan.

4. WHO va CDC tahlillari bilan solishtirish:

WHO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har kuni 1 milliondan ortiq JYYI holati qayd etiladi; bu bizning tahlil natijalariga mos ravishda, o‘rganilgan ayollarning yarmidan ko‘pi infeksiya tashuvchisi ekanini tasdiqlaydi.

CDC (2022) statistik ma’lumotiga ko‘ra, 15–24 yosh oralig‘idagi ayollarda JYYI uchrash chastotasi eng yuqori — 45–50%; bizning tadqiqotda bu ko‘rsatkich 47% ni tashkil etdi.

5. Profilaktika natijalari:

Kompleks yondashuv (seksual ma’rifat + shifokor nazorati + kontraseptiv madaniyat) qo‘llanilgan ayollarda kasallik qaytalanish darajasi 12 oy ichida 42% dan 11% gacha kamaygan.

Davolash bilan birga profilaktik maslahatlar berilgan bemorlarda sog‘lom hayot tarziga rioya qilish 83% gacha oshgan.

XULOSA: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, bachadon bo‘yni saratoni ayollar orasida eng ko‘p uchraydigan onkopatologiyalardan biri bo‘lib, u asosan HPV infeksiyasi bilan bog‘liq.

Tadqiqot ishtirokchilarining 34 foizida HPV aniqlangan, 19 foizida esa I–II darajali displaziya qayd etilgan. 78 foiz hollarda kasallik erta bosqichda skrining orqali aniqlangan.

Kolposkopik tekshiruv, PAP-test va HPV-DNA aniqlash natijalari birgalikda qo‘llanganda tashxis aniqligi 92 foizgacha oshdi.

Bu esa shuni ko‘rsatadiki, erta tashxislash va profilaktik skrining dasturlari ayollarda bachadon bo‘yni saratoni rivojlanishini kamaytirishda muhim klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

TAKLIFLAR

1. Sog‘liqni saqlash tizimida 21 yoshdan boshlab barcha ayollar uchun majburiy ravishda HPV va PAP-test asosidagi skrining dasturlarini joriy etish zarur.
2. Birlamchi tibbiyot bo‘g‘inida akusher-ginekologlar uchun kolposkopiya va sitologik diagnostika bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etish.
3. Yosh qizlar orasida profilaktika maqsadida HPV infeksiyasi haqida ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, vaksinatsiyani kengroq joriy etish.
4. Elektron sog‘liq pasporti tizimida ayollarning skrining natijalarini avtomatik qayd etish va tahlil qilish tizimini yaratish.
5. Statistik tahlillar WHO va CDC mezonlariga asoslanib, respublika miqyosida muntazam ravishda olib borilishi lozim.

TAVSIYALAR

Ayollar o‘rtasida har 3 yilda kamida bir marta PAP-test, va 5 yilda bir marta HPV skriningi o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

O‘qituvchi-ginekologlar va vrach-rezidentlar uchun kolposkopiya bo‘yicha amaliy kurslar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Profilaktik tibbiy ko‘riklarga ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali targ‘ibot kampaniyalari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

HPV vaksinatsiyasi 9–14 yoshdagi qizlar uchun majburiy emlash dasturiga kiritilishi kerak (WHO tavsiyasi, 2023).

Tibbiy oliygohlarda akusherlik-ginekologiya fanini o‘qitishda “servikal skrining” bo‘limini alohida amaliy modul sifatida kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). Global Health Sector Strategy on Sexually Transmitted Infections 2022–2030. Geneva: WHO Press, 2023.
2. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Sexually Transmitted Infections Treatment Guidelines, 2021–2023 Update. Atlanta: CDC, 2023.
3. WHO. Laboratory Diagnosis of Sexually Transmitted Infections, Including Human Immunodeficiency Virus. Geneva, 2022.

4. CDC. Surveillance Report: Sexually Transmitted Disease Surveillance 2022. Atlanta, 2023.
5. Мухамедова Н.Ш., Турсунова Г.Б. Гинекологияда инфекцион касалликларнинг диагностикаси ва профилактикаси. — Тошкент, 2022.
6. Мавлонова Ф.Ж., Ибрагимова Н.А. Reproktiv salomatlik va infektsiyalar: zamonaviy yondashuvlar. — Тошкент, 2023.
7. Berek & Novak’s Gynecology. 16th Edition. Wolters Kluwer, 2020.
8. European Society of Gynaecological Oncology (ESGO). Colposcopy and Cervical Pathology Guidelines. Brussels, 2023.
9. Khadimova D., Yuldasheva B. Reproktiv yoshdagi ayollarda JYYI klinik ko‘rinishlari va davolash taktikasi. “Tibbiyot va Biologiya Jurnalı”, №3 (2024).
10. WHO Regional Office for Europe. Adolescent sexual and reproductive health: key data and recommendations. Copenhagen, 2023.